

## MILLIY IQTISODIYOTNING TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA YONDASHUVLAR

**Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi  
qoshidagi "Diplomatik servis xizmati" DUKning  
Transport va Bojxona boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada jahon iqtisodiy tendensiyalari va global xavf-xatarlar sharoitida milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari, global risk omillari va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan yondashuvlar ko'rib chiqiladi. O'zbekiston iqtisodiyoti misolida eksport diversifikatsiyasi, valyuta xavfsizligi, to'lov balansi va tashqi qarz barqarorligi kabi ko'rsatkichlar asosida tahlil o'tkazilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, global iqtisodiy o'zgaruvchanlik sharoitida milliy iqtisodiyot tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun kompleks strategik choralar zarur.

**Kalit so'zlar:** tashqi iqtisodiy xavfsizlik, global xavf-xatarlar, iqtisodiy tendensiyalar, eksport diversifikatsiyasi, valyuta xavfsizligi, milliy iqtisodiyot.

### Аннотация

В данной статье анализируются вопросы обеспечения внешнеэкономической безопасности национальной экономики в условиях мировых экономических тенденций и глобальных рисков. В исследовании рассматриваются индикаторы внешнеэкономической безопасности, факторы глобальных рисков и подходы, направленные на укрепление экономической устойчивости. На примере экономики Узбекистана проведён анализ показателей диверсификации экспорта, валютной безопасности, платёжного баланса и стабильности внешнего долга. Результаты показывают, что в условиях глобальной экономической изменчивости обеспечение внешнеэкономической безопасности национальной экономики требует комплексных стратегических мер.

**Ключевые слова:** внешнеэкономическая безопасность, глобальные риски и угрозы, экономические тенденции, диверсификация экспорта, валютная безопасность, национальная экономика.

### Abstract

This article analyzes the issues of ensuring the external economic security of the national economy in the context of global economic trends and risks. The study examines indicators of external economic security, global risk factors, and approaches aimed at strengthening economic stability. Using the example of Uzbekistan's economy, the analysis is carried out based on such indicators as export diversification, currency security, balance of payments, and external debt stability. The results show that, under conditions of global economic volatility, ensuring the external economic security of the national economy requires comprehensive strategic measures.

**Keywords:** external economic security, global risks, economic trends, export diversification, currency security, national economy.

## KIRISH

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar — inflyatsiya bosimi, ta‘minot zanjirlarining uzilishi, geosiyosiy tangliklar va moliyaviy beqarorlik — milliy iqtisodiyotlarning tashqi xavfsizligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda[1]. Xalqaro savdo va kapital oqimlarining o‘zgaruvchanligi, pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlari, shuningdek, yangi texnologik inqilob (Industry 4.0) sharoitida davlatlar uchun iqtisodiy xavfsizlik masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda[2].

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik — bu mamlakatning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini saqlash, tashqi qarz yukini nazorat qilish, valyuta zaxiralarini barqaror ushlab turish hamda Importga nisbatan muvozanatli yondashuvni shakllantirish imkonini beruvchi holatdir[3]. Shu sababli, O‘zbekiston uchun ham tashqi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash masalasi milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi iqtisodiy xavfsizlik nazariyasining ajralmas qismi sifatida 1970–1980-yillardan boshlab G‘arb iqtisodiy maktablarida shakllana boshlagan. Krugman va Obstfeld[4] asarlarida xalqaro iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun tashqi savdo balansining muvozanat holatini saqlash zarurligi ta‘kidlanadi. Ularning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik – bu faqat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki global iqtisodiy tizimdagi milliy mustaqillik darajasidir.

Stiglitz[5] globalizatsiya jarayonlarini tahlil qilar ekan, tashqi iqtisodiy xavfsizlikni “barqaror rivojlanishning asosi” deb baholaydi. U, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi kapital oqimlariga haddan ortiq qaramlikning xavfli oqibatlarini ko‘rsatib beradi.

Shuningdek, Laudon va Traver[6] elektron savdo, raqamli iqtisodiyot va xalqaro moliyaviy oqimlarning yangi shakllari tashqi xavfsizlikni yangi bosqichga olib chiqqanini ta‘kidlaydi. Ularning nazariyasiga ko‘ra, raqamli iqtisodiyotda milliy xavfsizlikning yangi o‘lchovi — ma‘lumotlar (data) xavfsizligi va raqamli suverenitetdir.

Glazyev[7] iqtisodiy xavfsizlikni davlatning ichki ishlab chiqarish salohiyatini saqlash, texnologik mustaqillikni ta‘minlash va tashqi qarzga qaramlikni kamaytirish orqali mustahkamlash mumkinligini ta‘kidlaydi.

Maslova[8] esa globalizatsiya sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda eksport diversifikatsiyasi va import o‘rnini bosuvchi siyosatning ahamiyatiga urg‘u beradi. U, ayniqsa, xomashyo eksportiga tayanadigan mamlakatlar uchun narx tebranishlari eng katta tashqi xavf ekanligini qayd etadi.

Shuningdek, A. Ostonakulov[9] O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligi misolida milliy iqtisodiyotning tashqi tahdidlarga bardoshlilik koeffitsiyentini aniqlash bo‘yicha amaliy metodikani taklif qilgan. U tashqi savdo balansining ijobiylashuvi, valyuta

zaxiralari hajmining barqaror saqlanishi va tashqi qarz boshqaruvining muvozanatli yuritilishi iqtisodiy xavfsizlikning tayanch ustunlari ekanligini asoslaydi.

## METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida tizimli guruhlash, tahlil va sintez, nazariy va amaliy o'rganish, shuningdek, taqqoslama va iqtisodiy diagnostika yondashuvlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy xavfsizligi — mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimdagi barqarorligini ifodalovchi murakkab ko'rsatkichlar tizimidir. U eksport-import nisbatlari, tashqi qarz, oltin-valyuta zaxiralari, to'lov balansi, va investitsion xavfsizlik darajasi orqali aniqlanadi[10].

Quyidagi 1-jadvalda 2018–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlarining dinamikasi keltirilgan[11].

1-jadval


### O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
<b>Eksport hajmi (mlrd. AQSh \$)</b>	14.3	17.3	15.1	16.6	19.3	21.5	23.8
<b>Import hajmi (mlrd. AQSh \$)</b>	19.0	21.8	19.6	24.2	26.5	28.0	29.2
<b>Eksport/Import nisbati (%)</b>	75.3	79.4	77.0	68.6	72.8	76.8	81.5
<b>Tashqi qarz (mlrd. AQSh \$)</b>	17.3	19.3	21.7	23.5	26.3	28.8	30.0
<b>Tashqi qarz / YaIM (%)</b>	30.2	31.4	34.5	37.2	39.6	40.3	39.8
<b>Oltin-valyuta zaxiralari (mlrd.\$)</b>	27.1	28.9	35.2	34.6	33.4	32.5	33.8

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Eksport hajmi 2018–2024 yillarda 9,5 mlrd. AQSh dollarga oshib tashqi qarzning YaIMdagi ulushi 30% dan 40% gacha ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq oltin-valyuta zaxiralari 2018-2024 yillarda yuqori darajada saqlanib, o'rtacha 33 mlrd. dollardan yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Eksport-import nisbati 2024-yilda 81,5% ga yetib, barqarorlik belgilarini ko'rsatmoqda. Tahlillar tashqi qarz hajmi o'sib borayotganiga qaramay, oltin-valyuta zaxiralari ham nisbatan barqaror darajada saqlanib turgani ko'rsatilgan. Bu davlatning tashqi moliyaviy xavfsizlik tamoyillariga rioya qilayotganidan dalolat beradi.

Tashqi qarz / zaxira nisbati 2018-yilda 0,64 bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 0,88 ga yetgan. Bu ko'rsatkich xalqaro xavfsizlik me'yorlari (1,0 chegarasi) doirasida qolganini bildiradi[10].

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining eksport va import dinamikasi (mlrd. AQSh dollarda, 2018–2024 yillar)[11].**

1-rasm ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikaning 2018–2024 yillar oralig‘idagi eksport va import hajmlaridagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. 2020-yilda pandemiya sabab eksportda qisqa muddatli pasayish kuzatilgan. 2021-yildan boshlab eksport hajmi 16,6 mlrd. dollardan 2024-yilda 23,8 mlrd. dollargacha o‘sgan. Import hajmi ham barqaror o‘shish tendensiyasida bo‘lib, 2024-yilda 29,2 mlrd. dollarga yetgan. Eksport/import nisbati 2024-yil holatida 81,5% ni tashkil etib, milliy iqtisodiyotda tashqi savdo balansining muvozanatlashayotganini ko‘rsatmoqda.

**2-jadval.**

**Davlatlarda tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatori(2024)<sup>1</sup>**

Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston Respublikasi	Qozog‘iston Respublikasi	Rossiya Federatsiyasi	Koreya Respublikasi
Eksport/Import nisbati (%)	76.8	103.5	132.0	112.4
Tashqi qarz / YaIM (%)	40.3	23.1	25.6	34.8
Oltin-valyuta zaxiralari (mlrd. AQSH dollari)	32.5	35.9	563.5	416.3

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatori — bu mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi barqarorligini va tashqi tahdidlarga nisbatan himoyalanganlik darajasini ko‘rsatuvchi miqdoriy ko‘rsatkichlar tizimi hisoblanadi va ushbu indikatori bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va uning tashqi iqtisodiy aloqalarda eng yuqori ulushga ega davlatlari to‘g‘risida 2-jadvalda ma’lumotlar keltirilgan[11].

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Eksport va importning nisbati mamlakatning tashqi savdo balansidagi muvozanatni ifodalaydi. 2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki Rossiya Federatsiyasi (132%) va Koreya Respublikasi (112,4%) eksportchi mamlakatlar sifatida tashqi savdo profitsitiga ega. Qozog'iston Respublikasi (103,5%)da balans deyarli muvozanatli. O'zbekiston Respublikasi (76,8%)da import ustunligi saqlanmoqda, ammo bu investitsion import (uskunalar, texnologiyalar) hisobiga bo'lib, iqtisodiy modernizatsiyaning faol kechayotganini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi eksport salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish yo'lida bo'lsa-da, importning asosiy qismi ishlab chiqarish tarmoqlarini yangilashga yo'naltirilgani va bu uzoq muddatli raqobatbardoshlik uchun ijobiy hisoblanadi.

O'zbekistonning tashqi qarzining katta qismi infratuzilma, transport, energetika va raqamli texnologiyalar loyihalariga yo'naltirilganligi sababli, qarzdan foydalanish rivojlanish xarakteriga ega bo'lib, bu ijobiy iqtisodiy xavfsizlik signali hisoblanadi.

O'zbekistonning oltin-valyuta zaxiralari importni 8 oydan ortiq qoplash imkoniyatiga ega (xalqaro me'yor – 3 oy). Bu milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlash uchun mustahkam moliyaviy asosdir.

2-jadval tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston importning tarkibi va investitsion yo'nalishi tashqi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlovchi omil sifatida baholanadi. O'zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizlik tizimida o'sish bosqichidagi barqaror davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. U eksport hajmini oshirish va tarmoqlarni diversifikatsiyalash orqali 2025–2030 yillarda eksport va importning nisbati balans deyarli muvozanatli darajasiga yetishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy xavfsizligi 2018–2024 yillar oralig'ida o'rtacha barqaror dinamikani saqlagan. Shu bilan birga, kelgusida strategik xavfsizlik uchun eksportni diversifikatsiya qilish va tashqi qarz boshqaruvini optimallashtirish ustuvor yo'nalishlar bo'lishi lozim.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jahon iqtisodiy tendensiyalari va global xavf-xatarlar sharoitida milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning 2018–2024 yillardagi tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlari mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimda barqaror o'sish trayektoriyasida ekanini tasdiqlaydi. Eksport-import nisbati 2024-yilda 81,5 % ga yetib, milliy iqtisodiyotning tashqi savdo balansida muvozanatga erishish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Tashqi qarzning YaIMdagi ulushi xalqaro xavfsizlik me'yori (50%) doirasida qolmoqda, bu esa moliyaviy barqarorlikning saqlanayotganidan dalolat beradi. Oltin-valyuta zaxiralari 32,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida saqlanib, importni 8 oydan ortiq qoplay oladi, bu milliy valyuta barqarorligining kafolati hisoblanadi.

Eksport tarkibida xomashyo ulushining yuqoriligi hali ham tashqi iqtisodiy xavfsizlik uchun strukturaviy xavf omili bo'lib qolmoqda, ammo to'qimachilik, farmatsevtika va IT xizmatlari ulushining ortishi ijobiy yo'nalishni bildiradi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizligi holati "barqaror rivojlanayotgan" toifasiga kiradi. Mamlakat eksportni ko'paytirish, tashqi qarzni samarali boshqarish va

valyuta zaxiralarini mustahkamlash orqali tashqi moliyaviy beqarorliklarga nisbatan muvozanatli moslashuvchanlikni namoyon qilmoqda.

Xomashyo eksportining yuqori ulushini kamaytirish uchun qayta ishlangan va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish zarur, IT, raqamli xizmatlar va farmatsevtika sohalarida eksportni rag‘batlantirish milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarini real vaqt rejimida kuzatib boruvchi raqamli monitoring platformasi yaratish orqali eksport-import dinamikasi, tashqi qarz, valyuta kursi va global narx indeksleri asosida avtomatik tahlil va prognozlarini shakllantirish imkoni yaratiladi. Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash — bu faqat tashqi savdo yoki moliya siyosatining emas, balki raqamli transformatsiya, innovatsion ishlab chiqarish va institutsional barqarorlikning birgalikdagi natijasidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Маслова, С. А. (2020). Экономическая безопасность в условиях глобализации. Москва: ИНФРА-М
2. Глазев, С. Ю. (2019). Стратегия опережающего развития и экономическая безопасность России. Москва: Наука.
3. UNCTAD. (2024). World Investment Report 2024: Investment in a Time of Uncertainty. Geneva: United Nations.
4. Krugman, P., & Obstfeld, M. (2018). International Economics: Theory and Policy. Pearson.
5. Stiglitz, J. E. (2020). Globalization and Its Discontents Revisited. New York: W.W. Norton.
6. Laudon, K. C., & Traver, C. G. E-commerce 2022: Business, Technology, Society. – 17th ed. – Boston: Pearson, 2022. – 900 p.
7. Глазьев, С. Ю. Стратегия опережающего развития и экономическая безопасность России. – Москва: Экономика, 2019. – 312 с.
8. Маслова, Н. В. Экономическая безопасность государства в условиях глобализации: монография. – Москва: Финансы и статистика, 2020. – 240 с.
9. Ostonakulov, A. B. Milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy xavfsizligini baholash indikatorlari modeli. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali. – 2022. – №4. – Б. 45–58.
10. IMF. (2024). World Economic Outlook: Balancing Risks. Washington D.C.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). To‘lov balansi to‘g‘risida hisobot asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

**Ingliz tili muharriri:**

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

**Rus tili muharriri:**

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

**Musahhah:**

Karimova Shirin Zoxid qizi

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, sentyabr, 9-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**